Hamidjonov Abdulaziz Usubjon o'g'li
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlari instituti doktoranti, PhD
Kuchkarov Ulug'bek Lochinbekovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti

SPORT O'YINLARIGA SPORTCHILARNI SARALASH VA YO'NALTIRISH ISTIQBOLLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10896324

Annotatsiya. Ushbu maqola Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlari institutida bajarilayotgan ALM-202306161313 davlat qayd raqami bilan ro'yhatdan o'tgan "Sport ta'lim muassasalarida seleksiya, saralash, bashorat qilish va oliy sport yutuqlarini rivojlantirish monitoringini joriy qilish uchun raqamli texnologiyalarni yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida amalga tayyorlangan bo'lib, maqolada sport o'yinlariga sportchilarni saralash va yo'naltirish istiqbollari hamda bolalar va o'smirlarni sportga yo'naltirish, tanlash va saralash muammolari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sportga yo'naltirish, tanlash va saralash, sport o'yinlari, yosh sportchilar

Dunyoda iqtidorli bolalarni saralash va sportga yo'naltirish muammosi mustaqil yo'nalish sifatida doimiy o'rganish, takomillashtirish va kelgusi ishlanmalar bosqichida turibdi. Sportga saralash muammosi jismoniy tarbiya va sportning muhim nazariy hamda amaliy pedagogik va tibbiy – biologik muammolaridan biri hisoblanadi. Sportga layoqatli bolalarni sport maktablariga saralashning asoslangan uslublari, ularning kelajakdagi yutuqlarini hamda sportdagi istiqbolini bashoratlash ko'p yillik tayyorgarlik tizimining ajralmas qismiga aylangan. Oqilona saralash hamda sportga yo'naltirish tizimi qobiliyatlar va tabiiy iqtidorni, yuqori sport mahorati darajasiga erishishda potensial imkoniyatlarni o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi.

R.R.Kuznesov, V.G.Nikitushkin, V.M.Guba fikricha, sport o'quv mashg'ulotlari jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, bolalarni sportga tayyorlash tizimining muhim vazifalaridan hisoblanadi hamda ularning sport sohasida katta yutuqlarga erishishiga imkon yaratadi [9, 12].

L.P.Sergienko [14] sportga yo'naltirish va saralashning quyidagi asosiy turlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Umumiy sportga yo'naltirish va saralash, bunda imkon qadar ko'proq bolalarni sport mashg'ulotlariga jalb etish va sportga iqtidorli bolalar hamda o'smirlarni sport bilan shug'ullanish uchun bolalar va o'smirlar sport maktablariga (BO'SM) saralash va yo'naltirish nazarda tutiladi. Bunday saralash va yo'naltirish – sport zaxirasini uzoq yillar davomida yaxlit tayyorlash tizimining boshlang'ich elementi hisoblanadi.

2. Tanlangan sport turi bo'yicha yo'naltirish va saralash, bolalarning muayyan sport turi bo'yicha mashg'ulotlarga layoqatini aniqlash.

3. Sportga maxsus yo'naltirish va saralash, yosh sportchilarni tanlangan sport turining muayyan tor sohasiga layoqatini aniqlab, sport ixtisosligi bo'yicha ko'p yillik mashg'ulotlarning dastlabki bosqichida qo'llash.

4. Maqsadli yo'naltirish va saralash, sportga ixtisoslashtirishning boshlang'ich bosqichidan boshlab ko'p yillik sport mashg'ulotlarining barcha bosqichlarida yosh sportchilarning jamoa tarkibida muayyan bir sport turiga xos o'yinda ishtirok eta olishini aniqlash uchun o'tkaziladi.

5. Tanlangan sport turi bo'yicha musobaqalarga yo'naltirish va saralash o'z oldiga teng darajadagi nomzodlar orasidan eng yaxshilarini tanlab olish hamda ularni aniq bir musobaqa dasturida ishtirok etishga yo'naltirish vazifasini qo'yib, ko'p yillik mashg'ulotlarning yakuniy bosqichida - muayyan sport turi bo'yicha chuqurlashtirilgan mashg'ulotlarda sport mahoratining yuqori bosqichiga olib chiqish ko'zda tuti-

ladi.

Sportga yo‘naltirish va saralashning yuqorida qayd etilgan asosiy turlarining har biri maqsadli yo‘nalish, me’yoriy ko‘rsatkichlar va talablar tizimi doiraisida ishlab chiqiladi va tashkiliy-uslubiy tadbirlar majmui xususiyatlariga ega ekanligi bilan ifodalanadi.

Shuningdek, saralashni o‘tkazish uslublari pedagogik (maxsus mashg‘ulotlarda erishilgan natijalarni testlash), tibbiy-biologik (morfofunksional xususiyatlarni nazarda tutgan holda) va psixologik saralash kabi turlarga bo‘linadi [8].

A.V.Gaskov, O.Yu.Kolmakova va V.P.Gubalarning ta’kidlashicha, saralash muammosini hal etishning ideal darajadagi varianti bu jismoniy rivojlanish va sport-pedagogik faoliyat bo‘yicha 8-12 yoshli yangi boshlovchilardan tortib yuqori malakali sportchilarga qadar sportchini model tavsifini tuzishdan iborat. Ushbu yo‘nalishda tobora ko‘proq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, tegishli adabiyotlarda sportchining tayyorgarlik darajalari va sport turlariga mos miqdoriy tavsiflarni yoritishga e’tibor qaratilmoqda. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlariga oid me’yorlar ishlab chiqilib, bu ularni talab darajasida tayyorlashni boshqarish imkonini bermoqda [6, 8].

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar, o‘smirlar va boshqa yoshdagi sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga oid zaruriy me’yorlar ishlab chiqilgan bo‘lib, sport bilan shug‘ullanmaydigan bolalarni testlash natijalarining ko‘rsatishicha, ayrim hollarda ularda noyob jismoniy qobiliyatlar mavjudligi kuzatish mumkin ekan [15]. Masalan, yengil atletika sport turida yugurish natijalarining qanchalik samarali bo‘lishi yugurish tezligiga va qadamlar sur’atiga bog‘liq ekan. Ma’lum bo‘lishicha, 100 tadan bitta bolaning yugurish tezligi 0,09 s.ga tengdir (100 m masofada jahon rekordchisi Useyn Sent-Leo Boltning startdan chiqish tezligi 0,04 s ga teng).

Kuch jismoniy sifati ko‘proq namoyon bo‘luvchi sport turlarida muhim o‘rin tutadigan mushakning nisbiy – kuch ko‘rsatkichlari (mushaklar tutashgan joy birligiga tegishli barqaror kuch) bo‘yicha ham ayrim hollarda sport bilan maxsus shug‘ullanmaydigan bolalar mushak tizimining nisbiy kuchi ko‘rsatkichlari maxsus shug‘ullanadigan sportchi tengdoshlariniki bilan deyarli bir xil ekanligi kuzatilgan [2]. Bu xil belgilarning mavjudligi qonuniyat hisoblanib, populyatsiya belgilarining taqsimlanish xususiyatiga mos keladi: egri chiziq bo‘yicha me’riy taqsimlanishda ozchilikni qamrab oluvchi chap qismga nisbatan o‘ng qismda belgilar yorqinroq kattalikka ega, D.D.Safarova fikriga ko‘ra, bunday (yuqoridagi va boshqa shu kabi) holatlar haqiqatan mavjud bo‘lib, populyatsiyada ularni tez-tez uchratish mumkinligini ham e’tiborga olish joiz.

Yuqoridagilarga xulosa qilib ta’kidlash joizki, sportda saralashda yuqori samaradorlikka erishish uchun yosh sportchining tanlangan sport turiga mosligini nazarda tutib, uning morfofunksional, tibbiy-biologik, biomexanik va psixologik xususiyatlarini to‘liq ifodalovchi serqirra, atroflicha mukammal parametrlarni o‘rganish va tegishli tavsifnomani tuzish lozim.

Sport amaliyotida ko‘proq e’tiborga olinadigan ko‘rsatkich morfologik xususiyatlar bo‘lib, unda tana uzunligi haqidagi ma’lumotlar, tananing boshqa a’zolarining total o‘lchamlarini aniqlash amalga oshiriladi [2]. Tana uzunligining kattaligi qo‘l va oyoqlarning uzun bo‘lishini talab etadi. Unchalik katta hajmda bo‘lmagan tanada qo‘l-oyoqlar birmuncha qisqaroq, aksincha gavda qismi nisbatan kattaroq bo‘ladi.

Yosh sportchining tana uzunligiga oid ma’lumotlar aksariyat sport turlarida, masalan, sport o‘yinlarida (basketbol, voleybol, gandbol va boshqalar) ayniqsa muhim sanaladi, chunki bunday sport turida bo‘yning baland bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sport gimnastikasida ham bu xil ma’lumotlar zarur bo‘lib, bunda o‘rta yoki past bo‘ylilar ko‘proq samara beradi [13]. Individual uslub asosida bolalar tana uzunligini o‘rganish uning har qanday bolaning yoshiga qarab genetik dastur bo‘yicha o‘zgarib borishini aniqlab berdi. Bu esa tajri-

ba-sinov o‘tkazilgan yilda regressiv tahlil asosida tana uzunligi haqidagi ma’lumotni aniqlash va muhim jihatlarni qayd etishni taqozo etadi [16].

V.P.Guba [8] regressni baravarlashtirishni qo‘llash orqali morfologik kuzatish asosida bolalarning jismoniy rivojlanishini baholash yo‘li bilan 2-9 yoshli bolalarda tananing alohida bo‘g‘imlari rivojlanishining o‘ziga xos qonuniyatlari mavjudligini aniqlagan, shuningdek, muallif birmuncha kattaroq yoshda ham bu yo‘nalishda o‘ziga xos qonuniyatlar amal qilishini qayd etgan.

P.V.Bezverxov [4] ta’kidlashicha, sportning muayyan turlari bo‘yicha erishiladigan natijalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan omillar nihoyatda ko‘p bo‘lib, sportchi modelini tuzishda ma’lumotlar haddan ziyod ko‘payib, foydalanish qiyinlashib ketmasligi uchun mazkur omillarni quyidagicha guruhlarga ajratib olish zarur.

Birinchi guruh omillarga sport mashg‘ulotlari ta’sirida etalon darajasidagi holatga erishishga imkon beruvchi, takomillashtiriladigan omillar kiradi, ikkinchi guruh omillarni trener va sportchining istaklari, sa’y-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan omillar tashkil qiladi.

1-guruh omillarning aksariyati muhit ta’siri bilan bog‘liq bo‘lsa, 2-guruh omillar ko‘proq genetik dastur xususiyatlariga aloqador bo‘ladi. Xususan, tana og‘irligi nasliy jihatlarga ko‘p ham bog‘liq bo‘lmay, aksariyat tashqi ta’sir tufayli o‘zgarishga uchraydi [1].

Nisbatan kattaroq yoshdagi, yuqori sport tayyorgarligiga ega sportchilarga ikki xil variantdagi model muvofiq kelishi mumkin:

Sportchining nasliy iqtidorini ko‘rsatuvchi, kelajakda tashxisning yuqori istiqbol belgilarini tavsiflab beruvchi model.

Sportchining bugungi kundagi holatini izohlab beruvchi model, bunday modeldan ularni musobaqaga saralashda foydalanish mumkin.

Olimlar tomonidan birinchi modelni tuzishda genotip bo‘yicha saralashga e’tibor qaratilgan [14]. Bu xil prognostik saralashda nasliy belgilarga ko‘proq e’tibor berilib, organizmning morfofunksional holati belgilari mohiyatini aniqlash talab etiladi. Buning uchun insonning alohida harakatga keltiruvchi sifat belgilari kompozitsiyasini o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Bularga, masalan, neyro-dinamik xususiyatlarga ko‘ra, asab impulsi (asab tizimi bo‘yicha tarqaluvchi signallar) tezligi hamda qo‘zg‘alish kuchi bilan aniqlanadigan energiya va tezlikning sifatini keltirish mumkin. Bunday sifatlar bir profilli deb atalib, ularning moddiy negizini birgalikda harakat birligini yuzaga keltiruvchi harakat – asab hujayralari va mushak paylari tashkil etadi [9].

Barqaror muvozanat hamda chidamlilik sifatlari ko‘p profilli hisoblanadi. Bu turli organik tizimlar orqali amalga oshadi. Birlamchi organik tizimlarni izohlash birmuncha osonroq, ikkilamchilarini esa muhim mexanizmlar hamda yetakchi bo‘g‘inlarni ajratib olgan holda samarali amalga oshirish mumkin bo‘ladi [6].

E.G.Martirosov [11] sport sohasida saralashning morfologik belgilarida asosan tananing umumiy o‘lchamlari (birinchi navbatda, tana uzunligi), tana a’zolarining o‘zaro mutanosibligi, tana og‘irligi hisobga olinadi. Ayrim morfologik belgilarga ta’sir ko‘rsatadigan nasliy omillar va muhitning o‘zaro ta’sirini aniqlashda quyidagi tadqiqot natijalariga asoslangan bo‘lishi mumkin [jadval].

Ma’lumki, harakat sifatlarining o‘sish dinamikasi turli yosh guruhlarida turlicha kechadi. Harakat sifatlarining o‘sish dinamikasi 10-13 yoshlarda birmuncha tez amalga oshadi.

Ayni vaqtda V.P.Gubaning [8] ishlarida jismoniy rivojlanishning 4 yoshdan boshlanadigan boshqa sensitiv davrlari ham ko‘rsatiladi.

Yosh tahlillariga oid qonuniyatlar mushaklar kuchining o‘sish dinamikasida ham kuzatiladi. 13 yoshdan 17 yoshgacha turli guruhlarga taalluqli mushaklar kuchining o‘sish dinamikasi bo‘yicha tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ladiki, chidamlilikka oid sifat o‘zgarishlari 10, 13 – 16 yoshlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bir qancha so-

matik belgilar (tana uzunligi, qo‘l-oyoqlar uzunligi, yelka kengligi va boshqalar) bo‘yicha ma’lumotlar asosida Yu.S.Vanyushin [5] tomonidan ishlab chiqilgan yosh guruhlariga oid har xil o‘sish ko‘rsatkichlaridagi turli-tumanlikning qayd etilishi ham yuqoridagi holatni tasdiqlaydi.

Yu.S.Vanyushin [5] sportda erishilgan natijalar dinamikasini o‘rganib, sportchilarning 3 xil guruhga mansub bo‘lishini e’tirof etadi. 1-guruh bo‘yicha natijalardagi kuchli o‘sish 16, 19, 22 yoshga, 2-guruh bo‘yicha natijalardagi kuchli o‘sish 15, 18, 21 yoshga, 3-guruh bo‘yicha natijalarda kuchli o‘sish 14, 17, 20 yoshlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatib o‘tgan.

Nasliy va muhit omillarining morfologik belgilarga ta’siri
(E.G.Martirosov bo‘yicha)

Morfologik belgi	Ta’sir shakli
Tananing belgacha uzunligi	Nasliy
Ko‘krak aylanasi	Nasliy
Qo‘l uzunligi	Nasliy
Tana uzunligi	Nasliy
Oyoq uzunligi	Nasliy
Tos kengligi	Nasliy muhit ta’siri
Yuqori va quyi bo‘g‘imlar uzunligi	Nasliy
Tana massasi	Nasliy muhit ta’siri
Elka kengligi	Nasliy muhit ta’siri
Uzun naysimon suyaklar kengligi	Nasliy
Bo‘g‘imlar kengligi	Nasliy muhit ta’siri
Suyaklarning yo‘g‘onligi	Muhit ta’siri
Suyaklar, miya suyagi ichki naychasi kengligi	Muhit ta’siri

V.K.Balsevich [3] va G.N.Germanov [7] sportchi o‘smirlar va sport bilan shug‘ullanmagan o‘smirlarning jismoniy mehnatga layoqati muammosini o‘rganib, jismoniy mehnatga layoqatlilik tug‘ma, insonga nasl orqali o‘tadigan xususiyat ekanligini aniqlashgan hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari hamda bolalar va o‘smirlar olimpiya zaxiralari sport maktab-internatlariga qabul jarayonida saralashni amalga oshirishda bunga jiddiy e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlashgan.

Yuqoridagilarga asoslanib qayd etish joizki, alohida harakat sifatlariga oid sport ko‘rsatkichlarining o‘sishi bo‘yicha rivojlanishning yosh davrlari (sensitiv davrlar)ga taalluqli natijalilikning birmuncha yuqoriroq davrlari mavjuddir [7]. Shu nuqtai nazardan, turli yosh davrlarida sport mashg‘ulotlarida turlicha samaraga erishilishiga tabiiy holat sifatida qarashga, buni nazarda tutishga to‘g‘ri keladi.

V.P.Guba [8] va R.R.Kuznesov [9] ta’kidlashlaricha, sportga tanlashning dastlabki bosqichida standart mashg‘ulot dasturlarini qo‘llash lozim. Ya’ni, barcha bolalar uchun bir xil miqdorda mashg‘ulotlar o‘tkazilishi, sport mashqlari tarkibi bir xil bo‘lishi, ularni bajarish tezligi vaa ketma-ketligiga birdek yondashish kerak. O‘sish sur’atini baholashda har bir bola tomonidan bajarilgan yuklamaning hajmi va shiddatini ham nazarda tutish zarur deb hisoblaydi.

Tanlash va saralash jarayonida yosh sportchining nafaqat tana o‘lchamini, balki kuch va tezlik bo‘yicha tayyorgarligi, chaqqonligi, chidamliligini ham e’tiborga olish zarur [8].

Hamisha ham dastlabki ma'lumotlar asosida yakuniy natijani bashoratlash mumkin emas. Masalan, suzish bo'yicha yosh sportchilarning boshlang'ich o'rgatishdan so'nggi holati natijalari ularning kelajakda erisha oladigan yutuqlarini aniqlash mumkin emasligidan darak beradi. Ya'ni, tadqiqot natijalari eng kuchsiz sportchilarning bir yildan so'ng kuchlilar tarkibiga kirganligi yoki, aksincha, kuchli sportchilarning bir yildan keyin kuchsizlar safiga tushib qolganligini ko'rsatdi. Ayni holat ko'pincha yosh futbolchilar orasida ham kuzatiladi. Shu sababli sportga oid layoqatlarni bashoratlashda barqaror ko'rsatkichlar rivojlanishining dastlabki tabiiy qobiliyatlar darajasiga e'tibor beribgina qolmay, umuman sport natijalari o'sish sur'atini ham nazarda tutish tavsiya etiladi.

Ayni vaqtda, E.B.Vertogradov va F.Korchek tanlash va saralashda o'quv dasturida taqdim etilgan nazorat sinovini amalga oshirmay, ko'proq futbolchining empirik "ideal modeli"ni aniqlashga, uning o'yin faoliyatidagi layoqatiga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydilar.

Ko'proq axborot uchun belgilangan parametrlar asosida tanlash va saralashni amalga oshirish muammosi dolzarb, lekin yetarlicha ishlab chiqilmagan muammo hisoblanadi. Sportda tanlash va saralash aksariyat holda sportchi tanasining antropometrik xususiyatlarini e'tiborga olmagan holda, asosan jismoniy rivojlanishni nazarda tutib amalga oshiriladi, vaholanki, sportchi tanasining antropometrik xususiyatlari sportchining mazkur faoliyat turiga qay darajada bog'liq ekanini tahlil etish va kuzatish imkonini beradi.

Bolalar bilan shug'ullanadigan trener va mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnomalari natijalaridan ma'lum bo'lishicha, tanlash va saralash jarayonida 90% dan ortiq respondentlar aksariyat yangi boshlovchi futbolchilar tayyorgarligini sub'ektiv baholashga asoslanadilar. Yana shuni ham nazarda tutish zarurki, maktab yoshidagi 98% o'g'il bolalar yozda futbolni, qishda esa xokkeyini sevimli sport turi sifatida qayd etadilar. Sport bilan shug'ullanuvchilar trener rahbarligida mashg'ulotlarda o'tkaziladigan tizimli nazorat sinovlariga chiday olmaydilar. Shu sababli trenerlar bolalarning tayyorgarligini sub'ektiv baholash bilan cheklanishga majbur bo'ladilar [10].

Tor sport ixtisosligiga yo'naltirish, tanlash va saralashning samarali tizimi yosh sportchi erishgan ko'rsatkichlararo o'zaro aloqadorlikni aniqlashda uning turli ko'rsatkichlar bo'yicha tayyorlik holatini xolis baholash zarurligini taqozo etadi.

Shunday qilib, sportda saralashda yuqori samaradorlikka erishish uchun yosh sportchining tanlangan sport turiga mosligini nazarda tutib, uning morfofunksional, tibbiy-biologik, biomexanik va psixologik xususiyatlarini to'liq ifodalovchi har tomonlama, atroflicha mukammal parametrlarni o'rganish va tegishli tavsifnoma ishlab chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Achilov A.M., Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. O'quv qo'llanma. - T.: ЎзДЖТИ, 2009. - B. 208.

2. Сафарова Д.Д., Исаев А.А. Валеологиядан практикум. Ўқув-услубий қўлланма. - Тошкент. ЎзДЖТИ, 2010. 29-31 б

3. Бальсевич В.К. Спортивный венсор физического воспитания в российской школе. - Москва. НИЦ, 2006.-112 с.

4. Безверхов П.В. Библиотека тренера. - T.: ITA-PRESS, 2014. C. 184.

5. Ванюшин Ю. С. Адаптация сердечной деятельности детей 5-7 лет к физическим нагрузкам различной мощности. // Теория и практика физической культуры. - 1998. -№ 7. - С. 16-18.

6. Гаськов А. В., Колмакова О. Ю. Современные методы спортивного отбора на примере дерматоглифики. // Физическая культура и спорт в условиях глобализации образовании: материалы I меж. науч. прак. конф. – Чита, 2013. - С. 179-182.

7. Германов Г.Н. Технологии модульно-целевого построения тренировочных заданий в микроструктуре тренировки юных спортсменов при разработке учебных программ для детско-юношеских спортивных школ //Культура физическая и здоровье. - Москва, 2007. - № 1. - С. 19-27.

8. Губа В. П. Теория и практика спортивного отбора и ранней ориентации в видах спорта: монография. - М.: Советский спорт, 2008. - 304 с.

9. Кузнецов Р.Р. Критерии спортивного отбора детей 7-9 лет в группы начальной подготовки по футболу и мини-футболу //Спортивные игры в физическом воспитании, рекреации и спорте: материалы X Международной научно-практической конференции. – Смоленск, 2016. – 65-69 с.

10. Лях В. И. Тесты в физическом воспитании школьников. Пособие для учителя. - М.: АСТ, 2008. -272 с.

11. Мартиросов Э.Г. Применение антропологических методов в спорте, спортивной медицине и фитнесе. - М.: Физическая культура, 2009. - 144 с.

12. Никитушкин В.Г., Губа В.М. Методы отбора в игровых виды спорта. - М., 1998. - 78 с.

13. Самсонова А.В., Барникова И.Э. Факторный анализ в педагогических исследованиях в области физической культуры и спорта – СПб.: ФГБОУ ВПО НГУ им. П.Ф. Лесгафта, 2013. – 90 с.

14. Сергиенко Л.П. Спортивный отбор (теория и практика) Монография. – М.: 2013 г. 126 б.

15. Столов И.И., Ивочкин В.В. Спортивная школа: начальный этап. – М.: Советский спорт, 2007.-140 с.

16. Шкондина И.Е., Алимходжаева Ч.Р. Проблемы детско-юношеского спортивного движения. //Соғлом авлод давлатимиз келажаги. – Тошкент. 2007. 43-45 б.